INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT
07.00.00 – TARIX FANLARI

SAYFIDDIN QUTUZNING KELIB CHIQISHI VA HOKIMIYATGA KELISHI XUSUSIDA BIR QATOR MULOHAZALAR

Atajanov G‘ulomjon Urinboyevich,
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi,
https://orcid.org/0009-0002-9843-4255
e-mail: gulomjonotajonov@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20427961

Annotatsiya. *Maqolada Anushtegin Xorazmshohlar sulolasining vakili, Misr Mamluklar davlati hukmdoriga aylangan Mahmud ibn Mamdud – Sayfiddin Muzaffar Qutuzning kelib chiqishi, uning Anushteginiylar sulolasiga taalluqli ekanligi haqidagi manbalar hamda tadqiqotlardagi fikrlar mushohada qilinadi.*

Kalit so‘zlari. *Anushteginiylar, Xonsulton, Ayyubiylar, Mamluklar, Maqriziy, Mamdud, Sayfiddin Qutuz, Izzuddin Oybek, Qut.*

Abstract. *The article examines the origin of Mahmud ibn Mamdud — Sayf al-Din Muzaffar Qutuz, a representative of the Anushteginid Khwarazmshah dynasty who became the ruler of the Mamluk Sultanate of Egypt, as well as the views presented in historical sources and scholarly studies regarding his affiliation with the Anushteginid dynasty.*

Keywords. *Anushteginids, Khansultan, Ayyubids, Mamluks, al-Maqrizi, Mamdud, Sayf al-Din Qutuz, Izz al-Din Aybak, Qut.*

Аннотация. *В статье рассматриваются происхождение Махмуда ибн Мамдуда — Сайф ад-Дина Музаффара Кутуза, представителя династии Ануштегинидов Хорезмшахов, ставшего правителем государства египетских мамлюков, а также мнения источников и исследований о его принадлежности к династии Ануштегинидов.*

Ключевые слова: *Ануштегиниды, Хансултан, Айюбиды, Мамлюки, аль-Макризи, Мамдуд, Сайф ад-Дин Кутуз, Изз ад-Дин Айбек, Кут.*

Kirish. Qutuz – yolg‘iz Misr yoki turk-islom tarixiga emas, dunyo ahamiyatiga molik muhim lider hisoblanadi. Uning tarixini o‘rganish faqatgina Anushteginiylar yoki Mamluklar tarixini o‘rganish bilan kifoyalanmasdan, butun Islom tarixi, Sharq va G‘arb o‘rtasidagi diniy-siyosiy kurashlar tarixini o‘rganish zaruratini vujudga keltiradi.

O‘zbekistonda Sayfiddin Qutuz tarixini o‘rganish so‘nggi yillarda avj oldi. Mazkur maqola ana shu harakatlarning bevosita davomi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qutuzning kelib chiqishi to‘g‘risida bir qator manbaa va tadqiqotlarda chuqur tahlil qilinmagan holda bo‘lsa ham eslanadi. Sayfuddin Qutuzning asl kelib chiqishi va oilasi haqida eng muhim ma’lumotlar Ibn Tangriberdi, Zahabiy, Ibn Xaldun, Suyutiy kabi tarixchilar asarlarida uchraydi. Mazkur manbalarda Sayfiddin Qutuz yoki unga taalluqli voqealar xususida aniq ma’lumotlar qayd qilingan bo‘lsa, Ziyo Bunyodov, Qudrat Masharipov, Bekzod Abdirimovlarning tadqiqotlarida ham qo‘shimcha ma’lumotlar bayon etilgan. Ayniqsa, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

(PhD) Bekzod Abdirimov Sayfiddin Qutuz tarixiga oid tadqiqotlarida kengroq tahlil va ma’lumotlarni taqdim etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Muhokama. Mamluklar tarixi bo‘yicha eng muhim manbalardan bo‘lgan Maqriziyning “As-suluk fiy ma‘rifa duval al-muluk” asarig ko‘ra, Qutuz – Xorazmshohlar davlati hukmdori Alovuddin Muhammad (1200–1220) ning qizi Xonsultonning farzandi, Jaloliddin Manguberdining jiyani edi. Uning mo‘g‘ullar tomonidan asir olinib, Damashqda arablarga sotib yuborilishi va Qohiraga kelib qolishi tafsilotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar kam. Uning asl ismi Mahmud ibn Mamdud deb ko‘rsatiladi. Uning otasi to‘g‘risida esa ma’lumotlar yo‘q. Qutuzning otasining kimligi haqida fikr bildirilar ekan turkiyalik tadqiqotchi Altan Chetin tomonidan quyidagilar bayon qilinadi: *“Ma’lum bo‘ladiki, sulton Alouddin Muhammad Xorazmshoh qizlaridan birini qarindoshlaridan biri bo‘lmish bir kishining Mamdud ismli o‘g‘liga turmushga beradi. Taxminimizcha, Qutuzning otasi Mamdud Alouddin Muhammadning inilari bo‘lgan Tojiddin Alishoh, Yunus xon, To‘g‘an tug‘di yoki Malikshohning, yo mazkur xonadonga mansub boshqa bir shaxsning o‘g‘li bo‘lishi mumkin”*.

Lekin uning onasi Xonsultonning Samarqand xoni Usmonning xotini bo‘lganligi ma’lum. Balki keyinchalik Usmon o‘ldirilganidan so‘ng, Mamdud ismli odamga turmushga berilgan bo‘lishi mumkin. Keyinchalik Xonsulton mo‘g‘ullar tomonidan asir olingach, Chingizxonning katta o‘g‘li Jo‘jiga turmushga beriladi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, keyinchalik Jo‘ji va Xonsultondan Oltin o‘rdaning birinchi musulmon xoni Berkaxon tug‘iladi.

Manbalarda berilgan hikoyatlarga ko‘ra, bolaligida (mo‘g‘ullarga asir tushib qul sifatida sotib yuborilgan) bir kuni uni xo‘jayini kaltaklagan. Qutuz bir chekkaga chiqib yig‘lab o‘tirganida xo‘jayini uning yoniga yaqinlashib, nega yig‘layotganini so‘raydi. Qutuz ham uning yig‘lashiga sabab kaltak yegani emas, balki oilasi haqida aytgan yomon so‘zlari ekanini aytadi. Xo‘jayini undan: “Ota-onang kofir emasmi?” – deganida Qutuz: “Yo‘q, men musulmon o‘g‘liman, Xorazmshoh Muhammad qizining o‘g‘liman. Men podshohlar avlodidanman, endi esa supurgichilik (sidirish) qilyapman va shu holda dunyodan o‘taman”, – deb javob beradi.

Qutuzning bu haqidagi javobi Zahabiy, Ibn Xaldun, Suyutiy kabi tarixchilar asarlarida ham uchraydi. Manbalarda umumiy bo‘lgan yana bir ma’lumotlar: Qutuzning oldin Damashqda Ibnuz-Zaim ismli kishining mamlugi bo‘lganligi, keyinchalik uni Amir Izza’ddin Oybek tomonidan sotib olinganligi va Qohiraga olib kelinganligi ta’kidlanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Salim Sabriy: “1241–1242 yillarda Shomdagi harbiy

harakatlarda mag‘lub bo‘lib, Bag‘dod xalifasi Mustansir Billohdan yordam olish uchun borgan xorazmliklarga, boshlig‘i sulton Jaloliddinning singlisining o‘g‘li sharqiy kuchlar bilan Sherozdan kelib qo‘shiladi”, – deb ma’lumot beradi. Manbalarda va boshqa tadqiqotlarda Jaloliddinning Xonsultondan tashqari apa-singillari va ularning o‘g‘illari haqida eslatilmaydi. Demak, bu katta ehtimol bilan Sayfiddin Qutuz bo‘lgan bo‘lishi ham mumkin.

Bir rivoyatga ko‘ra, Izzuddin Oybek sulton bo‘lgan paytida yonidagi mag‘riblik munajjimdan mamluklar orasida kimning baxti ochiqligini va tatarlarni (mo‘g‘ullar) kim yenga olishini so‘raydi. Munajjim esa ishora qilib Qutuzni ko‘rsatadi. Undan kimligi so‘ralganida o‘zini Xorazmshohlar xonadoniga mansubligini, otasining ismin Mamdud ekanligini bildiradi. Izzuddin Oybekning xorazmlik harbiy qismlar bilan so‘nggi damlargacha ittifoqdosh bo‘lganligi to‘g‘risida yuqoridagi mavzularda to‘htalgan edik. 1246–1247 yillardagi Xorazmliklarning Homs shahridagi mag‘lubiyatidan so‘ng bir guruh xorazmliklar Izzuddin Oybek bilan qolgan edi. Fikrimizcha o‘sha xorazmliklar ichida Qutuz ham bo‘lgan. Sayfiddin Qutuz ismidagi “Qutuz” so‘zi uning laqabidir. Ayrimlar tomonidan Qutuz so‘zi - “quturgan it” (qopag‘on it) deb so‘zni noto‘g‘ri talqin qilinib kelinmoqda. Bu esa bizning fikrimizcha noto‘g‘ri.Qutuz – so‘zining kelib chiqishi turkiycha bo‘lib “Qutuz” so‘zining o‘zagi bo‘lgan “Qut” so‘zidan olingan va bu odatda “baraka” so‘zi bilan qo‘shma so‘z sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, “Qut” so‘zi “Qut-li”, “Qut-lug‘”, “Qut-lov” kabi so‘zlarning o‘zagi bo‘lib ham keladi. Turk tadqiqotlarida esa “Qut-uz (og‘uz)” (Baxtli o‘g‘uz)degan ma’noni beradi, degan fikr mavjud. Ayrim g‘arb tadqiqotlarida esa “Qut-uz” so‘zidagi “uz” qo‘shimchasi “mening, o‘zimnig” degan ma’noni berishini va “Qut-uz” so‘zi “Mening hayotim”, degan ma’noni bildiradi.

Qutuzning shaxsiyati haqida fikr bildirgan tadqiqotchilar uning jasur, qahramon, tadbirli, dindor, yaxshi fazilatlarga ega bo‘lgan inson bo‘lganligi, kuchli zakovati va qobiliyatli bo‘lishi bilan birga, jasurligi, qisqa muddatda o‘zini ko‘rsatganligini qayd qiladilar.

Sayfiddin Qutuzning hokimiyatga kelishi. Sayfiddin Qutuzning hokimiyatga kelishi mo‘g‘ullar tomonidan Xuroson, Eron, Iroq kabi hududlarni o‘z ichiga olgan Xulagu davlati (Elxoniylar) chegaralari tobora Misr sari kengayib kelishi bilan bir davrga to‘g‘ri keladi. U Misr sultonligi taxtiga chiqqan bir davrda davlatning ichida Solihdan so‘ng taxtga o‘tirgan Turonshoh, Shajarat-Dur, Oybek, Nuriddin Alilar davridan meros bo‘lib kelayotgan ichki notinchlik hukm surar, Mu’iz mamluklari va Bahriy mamluklari o‘rtasidagi nizolar xalqning tashvishini orttirgan, Suriyadagi ayyubiy qo‘shnilar bilan umuman qo‘shnichilik aloqalari yo‘q edi. Davlatning ichki ahvoli og‘ir, xalq salibchilarning doimiy urushlaridan charchagan, Misrning shimoli O‘rta yer dengizi, sharqiy Sinay yarimoroli orqali ayyubiylardan boshqa chegaralari Qizil dengiz bilan

chegara, g‘arbi va janubidagi Liviya, Sudan kabi hududlar bo‘lib, ularda suyanadigan kuch ham yo‘q edi. Shuncha og‘ir meros yetmaganday o‘z yo‘lida hech bir davlatni omon qoldirmay talab kelayotgan mo‘g‘ullardan davlatni saqlab qolish mas’uliyati Anushtegin – Xorazmshohlar sulolasi vakili Sayfiddin Qutuz zimmasiga taqdir tomonidan qilingan hukm edi. U mamlakatni adolat va sahiylik bilan odamlar qalbiga yo‘l topish orqali boshqarib, barcha tartibsizliklarga qisqa vaqt ichida chek qo‘yganligi manbalarda keltiriladi.

Sayfiddin Qutuz boshchiligidagi Mu’izz mamluklari Oybekning fojeali o‘limi sabab bo‘sh qolgan taxtga uning o‘n besh yoshli o‘g‘li Nuriddin Ali ibn Mu’izz Oybekni chiqarish kerak degan xulosga keldilar. Milodiy 1257-yil bu ish hal bo‘ldi va unga Malik Mansur Ali laqabini berdilar. Mamluklar yosh bolani sulton deb e’tirof etishdan bosh tortdilar va ularning norziliklari bir necha tartibsiz bo‘ronlar (qo‘zg‘olon) shaklida ko‘rina boshladi. Nizolashgan toifalarning ayrimlari Shom diyoridagi ayyubiylardan ko‘mak so‘radi. Ular Misrga ikki marta harbiy yurish qilib ko‘rdilar. Lekin ularning nasibalari omadsizlik, mag‘lubiyat bo‘ldi. Biroq bu qo‘zg‘olonlar amir Sayfiddin Qutuzning yulduzi zohir bo‘lishi uchun yangi fursat bo‘ldi. Qutuz Otabek Sanjar Halabiyni tutib, Jabal qal’asi zindoniga tashladi.

Bu Najmul Amir Sayfuddin Qutuzning o‘rtaga chiqishi uchun yangi bir fursat bo‘ldi. Shu sababli ham u dastlab otabek Sanjar Halabiyni qo‘lga olib, tog‘ qal’asidagi zindonga tashladi. Chunki otabek ham Al-Mu’iz Oybek qatl qilinishidan so‘ng hokimiyatga davogarlardan biri edi. Taxtni egallash uchun qulay fursatni izlardi. Bu esa o‘z o‘zidan mamlakatdagi boshboshdoqlikning, anarxiyaning kuchayishiga olib kelardi. Bahriy mamluklardan bir qanchasi Shom tomonga qochib ketgan edilar. Ularni Muizz mamluklari haydab chiqargan, ba’zilarini esa qo‘lga tushirib qal’a zindoniga solgan edilar. Bu holat Sayfuddin Qutuz uchun qulay imkoniyat bo‘lib, u sulton noibiga aylandi. Natijada u podshoh Mansur Aliy davlatining boshqaruvchisi bo‘lib qoldi. Taxtga yoshi kichik bo‘lgan bolaning o‘tirg‘izilishidan maqsad – vaqtdan yutish bo‘lib, shu fursat ichida mamluklarning boshliqlaridan biri saltanat taxtini egallashi kerak edi. Bunga o‘xshash holat mamluk sultonlar hukmronligi davrida tez-tez takrorlanib turardi. Qolaversa, bu ishni siyosiy o‘yinlardan biri deb atasak ham mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Yana bir jihatga ahamiyat qaratishimiz lozimki, mamluklar taxtni meros qilib olish nizomiga bo‘ysunmaganlar. Chunki ular tabiatan harbiy ruhda o‘sganlar. Boshqa tomondan ularda “biz barchamiz barobarmiz” degan tushuncha bo‘lgan. Katta amirlar barchalari taxtga o‘zini loyiq deb bilgan. “G‘olib bo‘lgan hukm qiladi” degan asosga tayangan holda – kim kuchliroq bo‘lsa, o‘sha taxtga egallik qiladi deb e’tiqod qilardilar. Ularning mazkur tabiatlari natijasi o‘laroq, saltanat taxti davomiy tarzda katta amirlar o‘rtasida kurash maydoni bo‘ldi. Xususan, taxt sulton o‘limi tufayli bo‘shab qoladigan bo‘lsa, o‘zaro nizo-

yu tortishuvlar avjiga chiqar edi. Ayni shu hol Izzuddin Oybek vafot etganda sodir bo‘lgan edi. Sayfuddin Qutuz mamlakat boshqaruvini qo‘lga olishga shoshilmadi. Balki saltanatni rasman yosh bolaga berib, zimdan o‘z hokimiyatini mustahkamlay boshladi. Shu tariqa Misr taxti ikki o‘t orasida qoldi. So‘ngra Qutuzda ichki siyosiy vaziyatni o‘nglash uchun qulay fursat paydo bo‘ldi. U siyosiy holatni o‘nglash bilan band bo‘lib turgan bir paytda Qohirada kichik sulton otasining mamluki bo‘lmish Qutuzni vazifasidan ozod qilishni istayotgani to‘g‘risida gap-so‘zlar tarqaldi. Shu orada mamlakat kattalari bir uyda to‘planib, kichik podshoh Mansur Aliy va Qutuz orasini isloh qildilar. O‘rtalaridagi sovuqchilikni ketkazdilar. Shu tariqa Sayfuddin Qutuzning davlatdagi o‘rni yanada mustahkamlandi. Ayni shu paytda Qohirada mamluk toifalar tomonidan qo‘zg‘atilgan fitnalar tufayli holat izdan chiqqan edi. Shuningdek, Mug‘is Umar tomonidan 1257–1258-yillarda amalga oshirilgan urushning muvaffaqiyatsiz ravishda yakunlanishi ham katta xatarni keltirib chiqargan edi. Mug‘is Umar – bahriy mamluklar va ularning ittifoqdoshlari bo‘lmish Ayyubiylarga qarshi ikki bora qo‘shin tortib chiqqan edi. Sayfuddin Qutuz shijoati sababli mazkur ayyubiylar xatari ham barham topdi. Shuningdek, uning say-harakatlari tufayli mamlakatdagi ichki vaziyat tartibga keldi.

Shundan so‘ng podshoh Mug‘is Umarga xayrixoh bo‘lgan amirlarni qo‘lga oldi. Ular amir Izzuddin Oybek Rumiy Solihiy, amir Sayf Balbon Kofuriy Solihiy Ashrafiy, amir Badriddin Baktut Ashrafiy, amir Badriddin Balg‘on Ashrafiy va yana bir qancha amirlardir. Qutuz robi’ul avval oyining 26-kunida ularni qatl qilib, barcha boyliklariga ega chiqdi. Shu hodisa tufayli ham Sayfuddin Qutuzning siyosiy hokimiyati quvvatlandi. Lekin kichik yoshli bola boshqaruvidagi saltanat o‘ta zaif ko‘rinar, yaqinlashib kelayotgan muammolarga bardosh bera olmasligi ravshan edi. Zero, ularning ustiga mo‘g‘ul balosi yopirilib kelayotgandi. Kichik sulton Nuriddin Ali esa bunday katta xatar qarshisida turishdan ojiz edi. U vaqtini ulov minish, qal’ada sayr qilish, hammomda xizmatkorlar bilan o‘yin kulgu qilish bilan o‘tkazardi. Mo‘g‘ullarning vahshiyliklari, ularning harbiy yutuqlari to‘g‘risida kelayotgan har bir xabar mamlakat aholisi qalbida tahlika uyg‘otib, ruhan sindira boshladi. Shunday tahlikali bir paytda Sayfuddin Qutuz bir tomondan mamlakat taxtini egallash uchun so‘nggi qadamni tashlashi, boshqa tomondan davlat ichidagi siyosiy nufuzini barqaror holga keltirishi, uchinchi tomondan esa yaqinlashib kelayotgan mo‘g‘ul balosiga qarshi turishga hozir bo‘lishi lozim edi. Mo‘g‘ul qo‘shinlari Shom o‘lkasiga yaqinlashgach, Kamol ibn Adim nomi bilan tanilgan muarrix, faqih Qohiraga yetib keladi. Kichik sulton Mansur Nuriddin Ali ham majlisga hozir bo‘ldi. Shuningdek, mamlakat aholisining katta faqihu qozilari ham tashrif buyurdilar. Yig‘ilganlarning orasida Sayfuddin Qutuz ham bor edi. Majlis ishtirokchilari ulamolardan qo‘shin harajatlari uchun aholidan pul yig‘ish masalasi borasida so‘raganlarida, shayx Izzuddin o‘zining o‘sha mashhur fatvosini beradi. Bu haqda Aynu Jalut jangi haqida so‘z

yuritganimizda batafsil to‘xtalib o‘tamiz. Ushbu majlis Sayfuddin Qutuz ga o‘zining oliy maqsadi bo‘lmish Misr taxtini egallash hamda mo‘g‘ullarga qarshi jang qilishda katta dastak vazifasini o‘tadi. Kichik sulton ishtirokidagi ushbu to‘planish Qutuzning taxt sari tashlagan so‘nggi qadamlaridan edi.

Endi Sayfuddin Qutuz homiyligidagi 15 yoshli Nuriddin Ali davlatni boshqara boshlaydi. Uning hukmronligi ham uzoqqa cho‘zilmadi. Bir tarafdan mo‘g‘ul tahlikasi, yana bir tarafdan Bahriy mamluklari tomonidan uyushtirilayotgan noroziliklar davlatning kuchsizlanishiga sabab bo‘layotgan edi. Misrda bo‘layotgan bu tartibsizliklar Suriyadagi ayyubiylar tomonidan qo‘llab quvvatlanar, hatto yosh hukmdorni tan olmasdan Misrga yurish qiladilar. Bu yurishlar Sayfiddin Qutuz tomonidan to‘xtatiladi. Misr hokimiyatiga ko‘z tikkan Mug‘isiddin Umar ayyubiy 1258 yilda (Bag‘dod mo‘g‘ullar tomonidan bosib olingan vaqtda) qilgan yana bir hujumiga ham Qutuz tomonidan barham beriladi. Hullas, yosh hukmdorning tajribasizligi Misr uchun tobora xavfli bo‘lib borayotgan edi. Suriyadagi ayyubiylar, mo‘g‘ullarning kundan-kunga oshib borayotgan tahdidi sharoitida yosh hukmdorning taxtda o‘tirishi Misrdagi siyosiy doiralarga ham ma’qul kelmay qolayotgan edi. Shu bilan birga Suriyadagi ayyubiy amirlardan bo‘lgan Nosir Yusufning Misrning yosh sultoni Nuriddin Aliga Iroq va Shomga bostirib kirgan mo‘g‘ullarga qarshi kurashda so‘ragan yordami ham javobsiz qoladi. Keyin esa Misr kelajagi uchun muhim bo‘lgan qaror qabul qilinadi. Qutuz endi davlatni rasmiy ravishda boshqarishga qaror qilib, yosh shahzodani taxtdan tushiradi va shu tariqa 1259 yilda mamluklarning taxt sari odimlari o‘z kamoliga yetdi. U Misr diyori hukmdoriga aylandi. Shu kunning o‘zida Qutuz tog‘ qal’asida saltanat taxtiga o‘tirdi. Yig‘ilganlar uning hukmronligini tan oldilar. Chunki u oldingi podshoh noibi, qo‘shin qo‘mondoni edi. Shijoatliligi, dovyurakligi bilan tanilgan edi. Mamlakatdagi katta amirlar ham uning sultonligiga rozi bo‘ldilar. Va uni podshoh taxtiga o‘tqizib, “Muzaffar” nomi bilan chaqira boshladilar.

Sayfiddin Qutuz hokimiyatga nihoyatda og‘ir bir davrda keldi. Birinchidan, mamlakat ichki nizolar iskanjasida bo‘lsa, ikkinchidan mo‘g‘ullar ham sharqdan ochiqdan-ochiq tahdid qilib turgan edilar. Bunday vaziyatda avvalo Sayfuddin Qutuz tashqi dushmanlarga qarshi tura olishi uchun, dastlab, o‘z mamlakati ichida hokimiyatini mustahkamlab olishi lozim edi. Shu maqsadda u vazir Ibn bint A’azni lavozimidan bo‘shatib, uning o‘rniga Zayniddin Ya’qub Abdurrafe’ ibn Yazid ibn Zubayrni tayinladi. Ammo, ko‘p o‘tmay sulton Mansur Alini hibsga olib, uning taxtini egallab olganini qoralab bir qancha katta amirlar tog‘dagi qal’aga keldilar. Qutuz ulardan xavfsirab, o‘z uzrini mo‘g‘ullarning Misr va Shom diyoriga bostirib kelayotganlari ila izhor etib, shunday dedi: “Men faqatgina barchamiz mo‘g‘ullarga qarshi birlashishimizni istayman, xolos. Bu esa boshliqsiz sodir bo‘lmaydi. Biz birlashib dushmanga qarshi turib, ularni yenganimizdan so‘ng ish sizlarning qo‘lingizda bo‘ladi. Istagan kishingizni saltanat taxtiga

qo‘yaverasizlar”. Uning bu gaplaridan so‘ng amirlar tinchlandilar. Bir muddat o‘tgach Qutuz o‘z hokimiyati mustahkamlanib borayotganiga ishonch hosil qildi. Shundan so‘nggina o‘ziga qarshi chiqishi mumkin bo‘lgan barchadan birma-bir xalos bo‘lishga kirishdi.

Bu birinchi navbatta mamlakatning ichki siyosiy barqarorligini ta’minlash uchun zarur edi. Mansur Ali, uning ukasi va onasini Dimyotga yuborib, o‘sha yorda ular uchun alohida hibsxona bino qildirdi. Va uning nomini “Burjus silsila” deb qo‘ydi. Ma’lum muddatdan so‘ng ularni surgun qilib yubordi. So‘ng sulton Sayfuddin Qutuz birin-ketin amirlarni hibsga ola boshladi. Ular: amir Ilmuddin Sanjar, amir Izzuddin Oydamir Najibiy, amir Sharofuddin Qayron Mu’izziy, amir Sayfuddin Bahodir, amir Shamsuddin Qorasanqir, amir Izzuddin Oybek Najmiy, sulton Mansur Alining tog‘asi amir Sayfuddin Dud, Husomiddin Bilol Mug‘iysiy Jamdorlardir. Shu tarzda Qutuz o‘ziga qarshi chiqishi mumkin bo‘lganlardan qutuldi. Boshqa tomondan esa, ayni shu paytda o‘zining hokimiyati asoslarini mustahkamlab bordi. Amirlar va qo‘shinni o‘zi uchun qasam ichtirdi. Sohib Zaynuddin Ya’qub ibn Abdurrafe’ni vazir qilib tayinladi. Amir Forisuddin Oqtoy Sag‘ir va Sohib Zaynuddinni qo‘shin ishlariga mas’ul qilib, ularga mamlakat askarlarini mo‘g‘ullarga qarshi jangga tayyorlash vazifasini yukladi.

Sayfuddin Qutuz mamlakat ichkarisida tinchlikka erishgan bo‘lsada, tashqi siyosatda ancha ehtiyotkor edi. Xususan, Shom yerlaridagi Ayyubiy hukmdorlar bilan oxista muomala qilardi. Ayniqsa, Damashq va Halab sohibi Nosir Yusuf Salohiddinga yumshoqlik bilan muomala qilardi. Hukmdor Nosirga Hulagu huzuridan yordam kelgani xabarini olgach, buning oqibatidan xavfsirab, unga o‘ta muloyimlik bilan maktub yozdi. Bu bilan Qutuz Podshoh Nosir bilan qarama-qarshi bo‘lishdan saqlanishni maqsad qilgandi. Xatida u hech qachon Nosir bilan teng bo‘la olmasligini, balki, o‘zini Misrdagi Nosirning noibi ekanini, qachon Nosir Misrga tashrif buyursa, uni saltanat taxtiga o‘tkazishini bayon qilib: “Agar istasangiz, sizga xizmat qilaman. Istasangiz qo‘shinimni olib sizga yordamga boraman. Agar meni kelishimni istamasangiz, qo‘shinni siz istagan kishi bilan huzuringizga yuboraman”, degan edi. Mazkur xatda Qutuzning birdamlikka bo‘lgan intilishi nechoqlik yuqori ekanligini ko‘rish mumkin.

Xulosa va takliflar. Sayfiddin Qutuz XIII asrning tahlikali yillarida Anushteginiylar oilasidan ajralib qolgani va olis o‘lkaga qul sifatida borib hukmdor sifatida olamdan o‘tgani tarixning o‘ziga xos mantiqiy yakunga intilishini ayon etadi. Jahon tarixida o‘zining yengilamsligi bilan nom qoldirgan mo‘g‘ul armiyasining ilk yirik mag‘lubiyatlari aynan Anushteginiy sultoni Jaloliddin Manguberdi bilan bog‘liq edi. Va albatta, mo‘g‘ullar davrining yakuniga yetishiga ham, ayniqsa, Islom o‘lkalarida, Anushteginiy oilasi vakillari sababchi bo‘ldilar.

Oxirgi yillarda mazkur voqealarga bo‘lgan ilmiy va keng jamoatchilikning qiziqishi bu davr tarixini chuqurroq o‘rganish zarurati yuzaga keltirmoqda. Nazarimizda, Sayfiddin Qutuzning qisqa muddatli hukmronlik tarixiga qadar kechgan hayotini chuqurroq tahlil etish yana yangi ma’lumotlar va tahlillar, xulosalar vujudga kelishiga zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Altan Çetin. Celaleddin Mengüberdi’nin akrabasi moğolları yenen harzemşahlı bir mamlük sultanı Kutuz’un kökeni hakkında bazı tespitler.//Harzemşahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. S. 316.
2. D.Sabri Salim. al-Atrok al-Khwarezmiyun fi-sh-sharqi-l-adna-l-islami. – Cairo, 2000.
3. Fatih Güzel Hülya Karababa Çakir. Kuruluş devrinde bir memluk sultani: Melikü'l-Muzaffer Seyfeddin Kutuz. Karefad. Tezis. Cilt: 7, Sayi: 2, Ekim, 2019. – S. 256.
4. İbn Haldun, Kitâbü’lİber, Beyrut: Dârü’l-Kütübi’l-İlmiyye, 1992/1413. c. 5. – S. 436.
5. İbn Tagriberdî, el-Menhelü's-safi ve'l-müstevfiba'de'l-vafi, Muhammed Muhammed Emin, Kahire: Darü’l-Kütübve'l-Vesaiki'l-Kavmiyye, 2002/1423, c. 9. – S. 74.
6. Ibni Tagriberdi. En-nucumu'z-zahire. (Parlayan Yildizlar). Arapçadan Çeviri: Ahsen Batur. Selenge Yayınları. Istanbul. 2013. - S. 33.
7. L. Rasonyi, I.Baski. Onomasticon Turcicum, Turkic Personal Names, Part II. (Indiana University Uralic and Altaic). 2007. - P. 514.
8. А. Мадвалиев. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энцклопедияси Давлат илмий нашриёти” Тошкент. 2020. - Б. 391.
9. Али Муҳаммад ас-Соллобий. Султон Сайфиддин Қутуз ва Айн-Жалут жанги. – Қоҳира, 2009. - Б. 87.
10. Аҳмад ибн Али ибн Абдулқодир Абул Аббос ал-Ҳусайний ал-Убайдий Тақйиддин ал-Макризий. Ас-сулук лимаърифати дувалил мулук. Нашрга тайёрловчи: Муҳаммад Абдулқодир Ато. – Ливан \ Байрут: Дорул кутубил илмийя. Биринчи нашр: 1418 ҳ./1997 м.й. Т. I. – Б. 520.
11. Рашид ад-Дин. Сборник летописей. – М.-Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1946. – С. 57.